
TOSHLOQ TUMANIDA «KEKSALAR UCHUN TURIZM OYLI» DOIRASIDA BIR QATOR ISHLAR AMALGA OSHIRILMOQDA

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan yoshi ulug' insonlar, keksa otaxonu onaxonlarga ko'rsatilayotgan yuksak g'amxo'rlik, nuroniylarning hayot tarzi va turmush sharoitini yanada yaxshilashga qaratilayotgan e'tibor, bu borada qabul qilinayotgan qator huquqiy hujjatlar keksa avlod vakillarining jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni va ishtirokini yanada mustahkamlamoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 maydagi «Keksalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlarni mazmun jihatidan butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. "Keksalar uchun turizm oyligi" doirasida Toshloq tumanida nuroniylar, mehnat faxriylari ishtirokida "Otalar choyxonasi" tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirga tashrif buyurgan nuroniylarga izzat-ehtirom ko'rsatilib, tashkilotchilarning esdalik sovg'alari topshirildi. Tadbir davomida yangragan kuy va qo'shiqlar barchaga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

2022-11-09 19:31:00